“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Meros shartnomasi borasida ayrim fikr-mulohazalar

Nargiza Egamberdiyeva,
Toshkent xalqaro universiteti
“Huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti
e-mail: egamberdiyevanargiza975@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidavorislik huquqi bo‘yicha taklif etilayotgan meros shartnomasining mohiyati, uning farqli tomonlari, shartnoma subyektlari bo‘yicha fikr-mulohazalar berilgan.

Калит сўзлар. meros shartnomasi, vasiyatnoma, umrbod ta’minot berish sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga berish, meros shartnomasi taraflari, merosxo‘r.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность предлагаемого в наследственном праве Республики Узбекистан наследственного договора, его отличительные особенности, а также высказывается отдельное мнениеотносительно субъектов данного договора.

Ключевые слова. наследственный договор, завещание, отчуждение жилого помещения другому лицу с условием пожизненного содержания, стороны наследственного договора, наследник.

Annotation. This article examines the essence of the inheritance contract proposed within the inheritance law of the Republic of Uzbekistan, its distinctive features, and provides several observations regarding the parties to such a contract.

Keywords. inheritance contract, will, transfer of residential premises to another person subject to lifelong maintenance, parties to the inheritance contract, heir.

Meros shartnomasi haqida muayyan tasavvur bo‘lsa-da, uning mazmuni, huquqiy xususiyatlari va amaliyotda qo‘llanishi haqida ma‘lumotlar yetarli emas. Vaholanki, meros shartnomasi jahon huquqiy amaliyotida anchadan buyon qo‘llanib kelinmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2025-yil 9-sentabrdagi “Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 280-qarorida birgalikdagi vasiyatnoma va meros shartnomasi institutlarini 2025–2027-yillarda joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan [1]. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda meros masalasi qonun bo‘yicha yoki vasiyatnoma asosida tartibga solinadi.

Meros huquqi – fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarini bevosita qabul qilib olish yoki qabul qilishni rad etish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir [2]. Meros qoldiruvchi o‘ziga tegishli mulkning vafotidan keyingi taqdirini vasiyatnoma orqali belgilashi mumkin. Vasiyatnoma bo‘lmagan hollarda yoki vasiyatnomada ko‘rsatilmagan mulkka nisbatan meros qonun bo‘yicha taqsimlanadi.

Vasiyatnoma va meros shartnomasi o‘rtasida o‘xshashliklar bilan bir qatorda muhim farqlar ham bor. Jumladan, meros qoldiruvchi vasiyatnomani istalgan vaqtda bekor qilishi yoki o‘zgartirishi mumkin. Bunda, umumiy qoida tariqasida, boshqa shaxslarni bu haqda oldindan xabardor qilish talab etilmaydi. Meros shartnomasining huquqiy tabiati esa boshqacha bo‘lib, unda taraflarning kelishuviga asoslangan munosabatlar yuzaga keladi.

Merosni rasmiylashtirish tartibida ham muayyan muddatlar belgilangan. Xususan, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma, umumiy qoidaga ko‘ra, meros ochilgan kundan e’tiboran olti oy o‘tgach beriladi. Biroq merosga bo‘lgan huquqning vujudga kelishi bilan uni tasdiqlovchi guvohnomaning berilishi bir xil tushuncha emas.

Rossiya Fuqarolik kodeksining 1140.1-moddasiga muvofiq meros shartnomasi deb merosxo‘rlar doirasini, shuningdek, meros qoldiruvchining vafotidan keyin uning mulkiga bo‘lgan huquqlarning meros qoldiruvchidan keyin hayot bo‘lgan shartnoma taraflari(merosxo‘rlar)ga yoki meros olishga chaqirilishi mumkin bo‘lgan, meros qoldiruvchidan keyin hayot bo‘lgan uchinchi shaxslarga o‘tish tartibini belgilaydigan shartnomaga aytiladi [3].

Mazkur ta'rif va huquqiy normalarni tahlil qilishdan anglash mumkinki, Rossiya huquq tizimida meros shartnomasi institutini joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad avvalo meros qoldiruvchi va bo‘lajak merosxo‘rlarga o‘zaro huquq va majburiyatlarini shartnomada rasman mustahkamlash imkoniyatini berishdan iborat.

Asosiy huquqiy munosabat bo‘lajak merosxo‘rning meros qoldiruvchi foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirishi evaziga kelgusida meros olish imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Meros shartnomasi umrbod ta'minlash sharti bilan uyni boshqa shaxsga berish shartnomasiga o‘xshash bo‘lsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Xususan, meros shartnomasi bo‘yicha meros qoldiruvchining mulkiga bo‘lgan huquqlar merosxo‘rga, umumiy qoida tariqasida, meros qoldiruvchining vafotidan keyin o‘tadi. Umrbod ta'minlash sharti bilan uyni boshqa

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shaxsga berish shartnomasi esa tuzilgan paytdan boshlab taraflar uchun tegishli huquq va majburiyatlarni yuzaga keltiradi. Ikkala shartnomada ham taraflarning moddiy manfaatlari muhim o‘rin tutadi.

Meros shartnomasiga misol sifatida boboning o‘z tadbirkorlik faoliyatini kelgusida davom ettirishni istagan nevarasi bilan shartnoma tuzishini keltirish mumkin. Bunday shartnoma taraflar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlarga asoslanishi bilan ajralib turadi.

Meros shartnomasining taraflari masalasiga kelsak, umumiy qoida bo‘yicha, unda meros qoldiruvchi va merosxo‘r ishtirok etadi. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 1118-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq meros ochilgan paytda tuzilib bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham vasiyat bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishi mumkin [4].

Meros shartnomasi subyektlari belgilanayotganda merosxo‘rlar doirasini aniqlashtirish kelgusida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni kamaytirish yoxud ularning oldini olish imkonini beradi. Ayniqsa, davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining merosxo‘r sifatida qatnashishi birmuncha qiyinchiliklarni vujudga keltirishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqlarini himoya qilishda davlat merosdan majburiy ulush olish huquqini belgilab qo‘ygan [5].

Meros shartnomasi tuzilganda ularning huquqlari qanday ta’minlanadi degan savol tug‘iladi. Zero, meros shartnomasida merosxo‘rlarning huquqlarining kafolatiga putur yetishi mumkin. Majburiy ulush olish huquqiga ega shaxslarga ulushlari ajratib berilganidan so‘ng (tabiiyki meros tarkibi kamayadi) meros shartnomasi merosxo‘rlari shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarganliklariga afsus qilishlari mumkin.

Shartnoma huquqining umumiy qoidalaridan kelib chiqib, meros shartnomasi ayrim holatlarda shartnoma tuzish erkinligi va shartnoma shartlarini belgilash erkinligi tamoyillari bilan muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Meros shartnomasini fuqarolik qonunchiligiga joriy etishdan avval ushbu institutni har tomonlama o‘rganish zarur. Germaniya fuqarolik qonunchiligida meros shartnomasining huquqiy chegaralari aniq belgilangan. Xususan, meros shartnomasini nafaqat er-xotin, balki bo‘lajak er-xotinlar ham tuzishi mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq nikoh haqiqiy emas deb topilgan taqdirda meros shartnomasining huquqiy oqibati aniqlashtirilmagan. Meros shartnomasi tuzilganidan so‘ng meros qoldiruvchi mulkiga nisbatan to‘liq mulk huquqini saqlab qolishi, shartnomaning ikkinchi tarafi kelajakda merosni to‘liq olishi kafolatlanishi kerak. Meros qoldiruvchining mulkiy huquqlarini cheklash mumkin emasligini inobatga olib, uning insofsizlik qilishining (merosni sotishi yoki yo‘q qilib yuborishi) oldini olish uchun, agar merosxo‘r meros qoldiruvchining hayotligi davrida bu holatni aniqlagudek bo‘lsa sudga murojaat etib meros shartnomasini bekor qilishni va yetkazilgan zararni talab qilishi mumkinligini nazarda tutish kerak

[6].

Meros shartnomasi tuzilganidan so‘ng meros qoldiruvchining o‘z mulkiga nisbatan mulk huquqini to‘liq saqlab qolishi, shu bilan birga, shartnomaning ikkinchi tarafining manfaatlari yetarlicha himoya qilinishi lozim. Mazkur shartnomada meros olish shartlarini belgilash bilan bir qatorda, meros qoldiruvchining hayotlik davrida meros tarkibiga kirishi mumkin bo‘lgan mulkni boshqarish bilan bog‘liq masalalar ham nazarda tutilishi mumkin [7].

Meros shartnomasining maqsadiga nisbatan A. G. Anikeyeva yanada ixcham yondashuvni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, “meros shartnomasining asosiy causasi – tadbirkorlik maqsadi, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan meros qoldiruvchining o‘z mulkini merosxo‘rlarga o‘tkazishidir”. Meros qoldiruvchi uchun “hayotlik chog‘idayoq vafotidan keyin uning biznesi bilan nima sodir bo‘lishini, u qanday rivojlanishini, kapitali ko‘payadimi-yo‘qmi” – bilish muhim [8].

Shunday qilib, meros shartnomasi meros qoldiruvchi va meros oluvchi o‘rtasida tuziladigan, meros qoldiruvchining vafotidan so‘ng mulk yoki mulkiy huquqning meros oluvchiga o‘tishini nazarda tutuvchi kelishuv hisoblanadi. Meros shartnomasining o‘ziga xos, shaxsiy xususiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, taraflar uning shartlarini o‘z manfaatlari va o‘zaro kelishuvlari asosida belgilashlari mumkin. Shu bilan birga bunday shartnomani amaliyotga joriy etishdan oldin uning huquqiy xususiyatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy oqibatlarini atroflicha tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/uz/docs/-7722035
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. 621 bet.
3. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142
4. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 1118-moddasi 2-qismi. https://lex.uz/docs/180552.
5. O‘zbekiston Fuqarolik kodeksining 1142-moddasi 2-qismi. https://lex.uz/docs/180552.
6. Демичев А.А. Наследственный договор в системе наследственного права Российской Федерации: дискуссионные проблемы // Актуалные проблемы государства и права. 2020. Т. 4. № 16. С. 477-484.
7. Кроча И.Н. Наследственный договор в российском гражданском праве. Научный журнал «CETERIS PARIBUS» ISSN (п) 2411-717X / ISSN (э) 2712-9470 №1 / 2025 45 стр.
8. Волос А. А. Наследственный договор в цифровую эпоху. Правовая политика и правовая жизнь. №3. 2021. 156 стр.